

## **FINLANDIYADA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMINING O‘ZIGA XOSLIGI.**

**Xalikova Zaxro Mirshadmanovna,**

Finlyandiyada boshlang‘ich ta‘lim deganda etti yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan to‘qqiz yillik umumiy maktab ta‘limning dastlabki olti yili nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinflarda darslar Milliy o‘quv dasturida ko‘rsatilgan barcha fanlarning maqsadlari va mazmunini asosida amalga oshiriladi.

Ta‘lim muassasalari Milliy o‘quv dasturi asosida o‘z o‘quv dasturlarini ishlab chiqadilar. Ta‘lim muassasalarida bolalarga ta‘lim, o‘quv qurollari bilan bir qatorda, bolaga kundavomida beriladigan ovqatlar, bolaning sog‘lig‘ini saqlash va dam olishi bilan bog‘liq madaniy xizmatlar, agar bolaning uyi maktabdan uzoqda joylashgan bo‘lsa, maktabga qatnash uchun transport bepul taqdim etiladi. [1, 17 p]

Milliy ta‘limning asosiy xususiyati barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir.

Bu siyosatni amalga oshirish uchun individual qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘riladi. Har bir o‘quvchi o‘z salohiyatini to‘la namoyon qilishi uchun imkon yaratiladi. Uch bosqichli qo‘llab-quvvatlash modeli quyidagilardan iborat:

- umumiy yordam;
- kuchaytirilgan yordam;
- maxsus yordam.

Finlandiyada maktablar xoh u poytaxt Helsinkida joylashgan bo‘lsin, xoh mamalakatning chekka hududlarida ular o‘rtasida tafovutlar deyarli bo‘lmaydi. va Ta‘lim sifati butun mamlakat bo‘ylab yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan.

Olti yoshli bolalar uchun bir yillik maktabgacha ta‘lim majburiydir. Maktabgacha ta‘lim muassasasida bolalar o‘z yoshi va qobiliyatiga nos bir necha

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha muhim bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Ular bir bolaga o'zlari yashaydigan hududdagi maktabdan joy ajratiladi, lekin katta shaharlardagi oilalar farzandlarini boshlang'ich ta'limga berishdan oldin ariza berish huquqidan foydalanib maxsus maktablarga joylashtiradilar.

Maxsus yo'nalishga ega maktabni tanlash odatda ariza berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maxsus yo'nalishga ega maktabga kirishi uchun arizalar 3 bosqichda amalga oshiriladi: boshlang'ich ta'limga qabul qilinishdan oldin, uchinchi va ettinchi sinfda darslar boshlanishidan oldin.



2024 yilning 15 avgust kuni Xalqaro Nordik universitetining bir guruh professor-o'qituvchilari bilan Helsinki shahrida joylashgan horijiy tillarni o'rganishga ixtisoslashgan SUK maktabida bo'ldik. Maktab boshqa maktablardan shved, ingliz va nemis tillarini chuqurlashtirib o'qitilishi bilan ajralib turadi.

Maktab o'zining qariyb 100 yillik tarixiga ega ekanligi bilan alohida e'tiborga



sazovor ekan. Maktabning bugungi kunda faoliyat olib borayotgan binosi 1972 yilda qurilgan bo'lin bugungi kunda mazkur maktabda 2500 nafar o'quvchi ta'lim olar ekan. Maktabning eng diqqatga sazovor joyi bu maktabning boy kutubxonasi bo'lib,

kutubxona maktabning eng bolalar bilan gavjum maskani ekan. Kutubxonada har bir yosh guruhi o'quvchilarning qiziqishlari va fikrlash doirasiga mos bo'lgan sifatli kitoblar juda ham ko'p ekan. Bolalar kitoblarni tanlashlari, bir-birlari bilan muhokama qilishlari uchun imkoniyatga egalar. Men kutubxonachidan har kuni nechta bola kutubxonadan kitob olishi haqida so'radim. U har kuni 700-800 o'quvchilar kutubxonadan foydalanishi haqida aytdi. Bu maktab o'quvchilarining

qariyib 30% tashkil qiladi. Bolalar kitobxonligining yaxshi yo'lga qo'yilganligi Finlandiya ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlovchi omil bo'lib hisoblanadi. Finlandiya ta'lim muassasalari xabarlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda maktablar oldidagi asosiy muammo nimadan iboratligi haqida savol berganimizda asosiy muammo bolalarni stresslardan asrash muxim muammo ekanligini qayta-qayta ta'kidladilar. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishlarini metakognitiv monitoring qilish masalalariga katta e'tibor qaratilishiga guvoh bo'ldim.

Men kuzatgan boshlang'ich sinflarning matematika darsida to'rtinchi sinf o'quvchilarining har biridan masala, misol va testdan iborat topshiriqlarni bajarishlaridan oldin va keyin qancha vazifani to'g'ri yechishi mumkinligi haqida savol berildi. Metakognitiv mulohazalar aniqligi va akademik muvaffaqiyat o'rtasida ijobiy aloqalar aniqlandi. E'tiborlisi, metakognitiv monitoringning o'quvchi tomonidan to'g'ri belgilanishi ta'lim muvaffaqiyatining omili ekanligini darslar jarayonida o'tkazilgan so'rovlarda ham tasdig'ini topdi. 3-sinf o'quvchilariga misollar berildi. Bolalardan qaysi misollarni to'g'ri yechganlarini haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Keyin o'qituvchi tomonidan bolalarga misollarning to'g'ri yechimlari javoblari berildi. Bolalar o'zlarining misol natijalari haqidagi tahminlari va haqiqiy holat orasidagi tafovut haqida o'zlari mulohaza yuritdilar. Ko'pgina bolalar o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olganlari ma'lum bo'ldi. [2]

Finlandiya maktablarida ta'lim jarayoni musobaqalashuv yoki kim o'zarga tarzida emas, balki bolalarning o'zaro hamkorligiga asoslangani ham diqqatga sazovor. Boshlang'ich sinflarda arifmetik masalalarni yechishda bolalar o'zaro hamkorlikda kichik guruhlarda ishladilar. Mazkur guruhlarda bolalar masalalar bo'yicha fikr yuritdilar. Masalaning shartini birgalikda tuzdilar. Masalaning yechimi bo'yicha bahslashdilar. [3]

Guruhlarda masala yechishga doir o'z faoliyatlarini o'zlari baholadilar. Masalaning to'g'ri javobi asosida bolalarning o'zlari xatolarni aniqladilar va tuzatdilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarga yo'riqnomalar asosida faoliyat

olib borishni o'rgatdi. Dars qiziqarli tarzda o'tkazildi. Bolalar dars jarayonida faol faoliyat bilan shug'ullandilar.

1. EURUDYCE (2018), Finland Overview. Brussels: EACEA European Unit of Eurydice in Brussels, [https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/finland\\_en](https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/finland_en) [accessed 14 October 2018].
2. Гуружапов В.А. К проблеме оценки метапредметной компетентности испытуемых [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование PSYEDU.ru. 2012. № 1. URL: <http://psyedu.ru/journal/2012/1/2771.phtml> (дата обращения: 27.03.2017)
3. Гуружапов В.А. Перспективы исследований учебной деятельности в контексте задач современной практики начальной школы // Психологическая наука и образование. 2015. Т. 20. № 3. С. 44–55. [doi:10.17759/pse.2015200306](https://doi.org/10.17759/pse.2015200306). Портал психологических изданий PsyJournals.ru — [https://psyjournals.ru/journals/psyedu/archive/2017\\_n4/Fomin](https://psyjournals.ru/journals/psyedu/archive/2017_n4/Fomin) [Метакогнитивный мониторинг решения заданий на проверку знаний: психологические предикторы и связь с академической успешностью // Психолого-педагогические исследования — 2017. Том 9. № 4]